



UQTIRISH USULI VA TA’LIM SAMARADORLIGI

Muallif: Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich¹

Affiliyatsiya: Falsafa fanlari doktori, professor, Yoshlar muammolarini o’rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17349069>

ANNOTATSIYA

Maqolada ta’lim jarayonida uqtirish usulidan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Muallif psixologiya va pedagogika fanlarida uqtirish usulini yoritishga yondoshuvlarni tahlil qiladi va bu muammoga o’zining munosabatini bildiradi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, uqtirish usuli, ta’lim samaradorligi.

KIRISH

O’qituvchi va murabbiylar obro’yi va mavqeini ko’tarishni, deyiladi Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning shu yil O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yo’llagan tabrigida, biz hal qiluvchi masala, deb hisoblaymiz. Prezidentning mazkur tabrigida mamlakatimiz ta’lim tizimida so’nggi yillarda amalga oshirilgan va yaqin kelajakda amalga oshirish rejalashtirilayotgan ulkan rejalar ham ko’rsatib o’tildi.

Jumladan, so’nggi 8 yil davomida fan va ta’limga sarflanayotgan mablag’lar hajmi 6 baravar ortdi, qisqa muddatda bolalar bog’chalari soni 5200 tadan 38 mingtaga etkazildi, ularda bolalarni qamrab olish hajmi esa 27%dan 78% ga ko’tarildi, 500ta yangi maktab binolari qurish va mavjudlarini kengaytirish hisobiga 1 million yangi o’quvchi o’rinlari yaratildi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo’yicha bundan ham ulkan ishlarni amalga oshirish boshlab yuborildi. Bu ishlarni qisqa muddatlarda va muvaffaqiyatli yakunlash uchun mazkur tizimning barcha bo’g’inlarida o’qituvchi va murabbiylar faoliyati samaradorligini keskin ko’tarish talab etiladi. Bunga erishish uchun esa pedagoglarimizni ta’lim va tarbiyaning zamonaviy va samarali usullari bilan qurollantirish zarur.

O’qituvchi va murabbiylarning ko’p qirrali faoliyatlari negizida ta’lim va tarbiya usullarini qay darajada egallaganliklari yotadi. Maktablarda va barcha ta’lim muassalarida ta’lim va tarbiyaning ko’plab usullaridan foydalaniladi. Pedagoglarimiz foydalanayotgan ta’lim va tarbiya usullari orasida ishontirish va uqtirish usullari asosiy usullar hisoblanadi. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida uqtirish usulidan qanday foydalanilayotgani haqida fikr yuritiladi.

ASOSIY QISM

O’quvchilarga berilayotgan bilimlarning yuqori saviyada bo’lishi, ular xotirasida olingan bilimlarning uzoq vaqt saqlanishini ta’minlashda uqtirish usuli alohida ahamiyatga ega. Lekin mamlakatimizda o’quvchilarga berilayotgan ta’lim jarayonida

qo'llanilayotgan usullarni tahlil qilish asosan ishontirish usulidan foydalanilayotgani, uqtirish usuliga kamdan kam hollardagina murojaat qiliyotganini ko'rsatmoqda. Biz bunday holning sabablarini o'rganishga harakat qildik.

O'zbek tilining izohli lug'atida uqtirish so'ziga quyidagicha izoh beriladi: izohlash, sharhlash, ishontirish. Bunday izoh "uqtirish" so'zining og'zaki va yozma nutqdagi ma'nolariga berilgan bo'lib uni mazkur so'zning psixologiya kategoriyasi sifatidagi ma'nosiga qo'llab bo'lmaydi. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, bu o'rinda uqtirish so'zining ma'nosini, jumladan, ishontirish so'zi orqali izohlanmoqda. Holbuki, psixologiya va pedagogika fanlarida "uqtirish" va "ishontirish" alohida va alohida kategoriyalarni anglatadi. Kategoriya bo'lganda ham ularning har biri mazkur fanlarning asosiy kategoriyasi hisoblanadi.

"Uqtirish" so'zi (rus tiliga-vnushenie, lotin tiliga "suggestiya" shaklida tarjima qilinadi.) inson psixikasidagi ongni chetlab o'tib ongostiga ta'sir o'tkazishni anglatadi. Bu usul ta'sir o'tkazilayotgan shaxs-ob'ektning mantiqiy sohasini chetlab o'tib, avlo, uning hissiyotiga, ustanovkalariga ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi. O'rnida va mohirlik bilan foydalanganda bu usul yaxshi natijalar beradi. Aksar holatlarda bu usulning natijalari ishontirish usulining natijalaridan ko'ra ham yuqoriroq bo'ladi.

Uqtirish ongosti bilan bog'liq bo'lgani sababli shaxsning fantaziyasidan foydalanish yordamida uning ongi va ong osti o'rtasidagi chegarani sezdirmay bosib o'tish mumkin. Ana shunday vaziyatlarda shaxs har qanday ta'sirlarga sezuvchan va beriluvchan bo'lib qoladi. Shaxsning ana shunday holatga tushganini yuzidagi muskullar bo'shashganidan va atrofdagi voqea-hodisalarga befarq qarashidan bilib olsa bo'ladi.

Uqtirish muayyan fikr yoki g'oyani shaxsning diqqatini, mantiqiy fikrlashini chetlab o'tib, uning ongostiga payvand qilishdir. Uqtirish odamlarning o'zaro verbal yoki noverbal vositalar yordamida muloqotga kirishishi jarayonida yuzaga keladi. Uqtirish faqat tashqaridan emas, balki ob'ektning o'ziga-o'zi ta'sir o'tkazishi oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Tashqaridan amalga oshirilgan uqtirish yoki shaxsning o'ziga-o'zi uqtirishi o'rtasida jiddiy tafovut yo'q. Ularning har ikkisini tasavvur birlashtiradi. Tashqaridan o'tkazilgan uqtirish o'ziga-o'zi uqtirish motiviga aylanadi. Tashqaridan uzatilayotgan axborot passiv qabul qilinmaydi, balki hayotiy tajriba nuqtai-nazaridan ishlov berilgan holda qabul qiladi. Aslida, tashqaridan ta'sir o'tkazib uqtirilayotgan odam shu uqtirishning hammuallifi bo'ladi. U chetdan uzatilayotgan axborotni o'zining tasavvuri yordamida boyitadi. Bunday holda tasavurning roli shaxsning emosionalligi, hayotiy tajribasi, madaniyati ehtiyojlari va jismoniy holatiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi zamon fani uqtirishning psixologik va fiziologik jihatlari bir-birini o'zaro to'ldirishini e'tirof etadi. Uqtirishning fiziologik jihatlari bosh miya va tana funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanini birinchi navbatda uqtirishning psixologik jihatlari qiziqtiradi. XVIII asr boshlaridayoq obro'li ilmiy komissiya Mesmerning "Mo'jizali hayvonot magnitizmi" nomli ma'ruzasini tahlil qilar ekan ma'ruzaning nomini "Mo'jizali tasavvur" deb o'zgartirgan edi. Haqiqattan ham uqtirish tasavvursiz yuz berishi mumkin emas. Tasavvur axborot modelini timsol yoki g'oya shaklida rekombinasiya qilish yordamida shakllantirilishidir. Tasavvur voqea-hodisalarning juda keng doirasini qamrab oladi. Insonning har qanday ko'rinishdagi faoliyatida tasavvur ishtirok etadi. Tasavvur o'tmishga, hozirgi kunga yoki kelajakka qaratilgan bo'lishi

mumkin. Ayni paytda u real, utopik yoki fantastik ko'rinishlarga ega bo'lishi ham mumkin.

Pedagoglar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlardan biri o'quvchilarga bilim berish, ularni vatanparvarlik va yuksak ahloqiy sifatlar ruhida tarbiyalashda yuqori natijalarga erishilishini ta'minlashi mumkin bo'lgan usulni, ya'ni ta'limda uqtirish usulini keng qo'llash zaruratidir.

Ta'limni samaradorligini oshirish masalasini muhokama qilar ekanmiz, bunday samaradorlikni ta'minlashi mumkin bo'lgan asosiy usul uqtirish usuli ekanini yodda tutish zarur. Ayni paytda bu usulning mohiyati, xususiyati va funksiyalarini atroflicha ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash psixolog va pedagoglarimizning e'tiboridan chetda qolmoqda.

Biz o'qituvchilarga metodik maslahatlar berish, ularning malakasini oshirishga ko'maklashish asosiy vazifasi bo'lgan va mamlakatimizda chop etilayotgan pedagogika va psixologiyaga oid hamda aloqador jurnallarda keyingi o'ttiz yil davomida bu mavzudagi materiallar qancha chop etilayotganini o'rganish maqsadida murojaat qildik. Ma'lum bo'ldiki, bu jurnallarda biz o'rgangan davrda uqtirish mavzusiga bag'ishlangan birorta ham maqola e'lon qilinmagan ekan. Tabiiyki, bunday holat bizni taajjublantirdi.

Uqtirish usulining ta'rifi pedagogika va psixologiya bo'yicha adabiyotlarda, qolaversa, internetdagi maqolalarda ko'plab keltirilgan. Bu ta'riflarning qisqa mazmuni uqtirishning shaxs ongini chetlab o'tib ongostiga ta'sir o'tkazishi bilan bog'liqligida. Bu ta'rifni ko'pchilik biladi, lekin uni amalda qanday qo'llash mumkinligi haqidagi savolimizga mamlakatimizdagi biror psixolog yoki pedagogdan javob topa olmadik. Bunday ko'ngilsiz holatning sababini hozircha topa olganimiz yo'q.

Har qanday nutqning, xoh u yozma, xoh og'zaki bo'lsin, asosiy vazifalaridan biri uqtirish ekanida. Kundalik muloqotlardagi uqtirish bilan uqtirishning ilmiy tushunchasi o'rtasidagi asosiy tafovut, kundalik munosabatlarda uni anglanmagan holda qo'llash bo'lsa, bu usulning ilmiy tavsifi uning tegishli dalillar, vositalar yordamida va ongli ravishda qo'llanishida. Bizningcha, shuni ham yodda tutish zarurki, ta'lim va tarbiyaning barcha usuli o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning ongiga ta'sir o'tkazishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, inson psixikasi ikki qatlam: ong va ongostidan iborat. Jahondagi ko'pchilik psixologlarning fikriga ko'ra ong psixikaning o'n foizini tashkil qilsa, ongosti 90 foizni tashkil qiladi.

O'quvchi va tarbiyalanuvchilarning ongostiga ta'sir o'tkazish shuning uchun ham muhimki, uzoq muddatli xotira ongostida joylashgan bo'ladi. Unga ta'sir o'tkazish usulini egallamas ekanmiz o'quvchilarga bergan bilimlarimiz psixikaning yuqori qatlami-ongda qoladi va oradan ko'p o'tmay unutilib ketadi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ongostiga tasir o'tkazishi mumkin bo'lgan va o'quvchilarga berilgan bilimlarning uzoq mudda saqlanishi mumkin bo'lgan usul uqtirish usulidir.

Fanda uqtirish usulining ikki turi farqlanadi: pedagogik uqtirish va gipnotik, ya'ni gipnozda uqtirish. Bu usul turlarining mohiyati bir xil bo'lsa ham, ularni qo'llashdagi maqsad turlicha bo'ladi. Pedagogik jarayonda uqtirish usulidan foydalanilganda ko'zlanadigan maqsad uqtirish ob'ektiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan iborat. Uqtirish usuli ta'lim jarayonida qo'llanganida berilgan bilimlar uning xotirasida uzoq muddat saqlanishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Shuningdek, uqtirish usulini bemorlarga nisabtan qo'llanganda uning davolovchi yoki bo'lmasa, tinchlantiruvchi va uxlatuvchi ta'siri ko'zda tutiladi.

Bu usulning ob'ekti sportchilar bo'lganida ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttirish, g'alabaga ishonchni yuksaltirish kabi maqsadlar ko'zlanadi.

O'tgan asrning 20-yillarida sobiq ittifoqdagi ta'lim jarayonlarida uqtirish usulini qo'llashga jiddiy ahamiyat berila boshlagan edi. O'sha davrlarda pedagogikaning *suggestopediya* deb nomlangan tarmog'i bo'lib uning mohiyati ta'lim va tarbiya jarayonlarida uqtirish usulidan foydalanishga qaratilgan edi. Keyinchalik, psixologiya fani va uning tarmoqlariga e'tibor susaygan, ba'zi tarmoqlar esa keskin tanqid ostiga olingandan keyin suggestopediya ham e'tibordan chetda qola boshladi. Bu haqda o'sha davrlarda uqtirish usuli bilan jiddiy shug'ullangan E.Shvars shunday yozgan edi: "Ma'lumki, uqtirish anglanmaydigan sohaga qaratiladi va shuning uchun ba'zan, uni sovet maktabida pedagogik usul sifatida qo'llash mumkin emas, degan fikrlar bildiriladi.

Oshkoralikka ko'proq e'tibor berila boshlagan o'tgan asrning 80-yillari o'rtalari va oxirlarida men Moskva shahrida ilmiy ish olib borish bilan band edim. O'sha paytlarda gipnoz to'g'risidagi maqtoqlar va gipnoz yordamida ishonish qiyin bo'lgan natijalarga erishish mumkinligi to'g'risidagi maqola va risolalarni o'qigan va ularning ta'sirida gipnozni o'rganishga kirisha boshlaganman. Gapning rostini aytsam, gipnozni taniqli mutaxassis va olimlardan o'rgangan bo'lsam ham, u keltirishi mumkin bo'lgan natijalar menga mubolag'adai tuyulgan edi. Shunday bo'lsa ham, O'zbekistonga qaytgandan keyin farzandlarimdan ikkitasiga chet tillarni gipnoz yordamida o'rgatmoqchi bo'ldim. Shu maqsadda ularning ongostiga chet tillarni tez va oson o'rganishlari to'g'risida ustanovka berdim. Bu farzandlarimdan kattarog'i maktabni tugatib universitetga kirayotgan paytda ona tilidan tashqari beshta, ikkinchisi esa uchta chet tilda erkin gaplashadigan bo'lgan edi. Chet tillarni o'rganishda uqtirish usulining samaradorligi to'g'risida izchil tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri bolgariyalik mutaxassis G. Lozanov edi.

Uqtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlarning aksariyati uning ongostiga ta'sir o'tkazishi to'g'risida yozishadi. Shu munosabat bilan ongosti o'zi nima, degan savol bo'lishi tabiiy. Bu savolga javob topish uqtirishning mohiyatini tushunishga jiddiy yordam beradi.

Psixologiya va unga yondosh fanlarda ongostiga berilgan ta'riflar ham juda ko'p. Bu ta'riflarni umumlashtirib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin, deb hisoblaymiz: ongosti ongdan tashqarida, lekin shaxs psixikasi doirasida yuz berayotgan barcha psixik jarayonlarning jamlanmasidir. Ba'zi qomusiy va akademik nashrlarda ongostining yuqorida keltirilgan ta'rifiga qo'shimcha tarzda uni bevosita hissiy qabul qilish yoki idrok qilishning imkoni yo'qligi qo'shib qo'yiladi. Ongosti muammosini o'rgangan ba'zi olimlar u inson psixikasining 85-90 foizini tashkil qilishini qayd etish bilan birga, unga faqat uqtirish usuli yordamida ta'sir o'tkazish mumkinligi haqidagi xulosalarini bayon qilishadi. Psixologiyaga oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha "Uqtirish usulidan mohirona foydalanish ta'lim, tarbiya va boshqaruv faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi." Shu munosabat bilan ham mazkur usulni o'rganish va undan samarali foydalanish ta'lim va umuman ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uqtirish usulining samaradorligi o'quvchilarga berilayotgan bilimlar bevosita ularning ongostiga o'tkazilishi bilan bog'liq. Ongostiga har qanday bilim va ma'lumotlar o'tavermaydi. Bilim va ma'lumotlarni qabul qilayotgan shaxs yoki o'quvchi o'sha ma'lumotlar o'zi uchun juda muhim ekanini anglaganda yoki bu bilimlar uqtirish usuli yordamida berilgandagina ular ongostiga joylashadi.

Uqtirish usuliga e'tiborsizlik va unga mensimay munosabatda bo'lish sobiq sovet tuzumi davrida avj olgan edi. Taassufki, bunday yondoshuv va munosabatdan mustaqillik davrida ham qutula olganimiz yo'q. Bunday holning zararli oqibatlarini shundan ham bilish mumkinki, mustaqillik davrida mamlakatimizda chop etilgan va etilayotgan, pedagogika va psixologiyaga oid yoki aloqador 30 dan ortiq jurnallarning birontasida ishontirish usuli bo'yicha e'lon qilingan birorta ham maqolani topa olmadik.

Ishontirish usuliga yuqorida bayon etilgan e'tiborsizlik va beparvolik o'zining salbiy jihatlarini namoyon etmay qolmadi. Buni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin: oxirgi o'n yilliklar davomida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga (OTMlarga) kirish imtihonlari test shaklida o'tkazildi. Test natijalari ko'rsatishicha, umumta'lim maktablarining bitiruvchilari test imtihoni topshirganlarida ularning 40-50 foizi 56 balldan past, ya'ni "qoniqarsiz" baho oldi. Hayratlanarli joyi shundaki, ularning aksariyati bundan bir oy avval maktabni bitirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va qo'llariga etuklik attestati olgan edilar. Lekin hechkimni bu bitiruvchilar maktabni bitirish imtihonlaridan o'tganlariga qaramay nega OTMga kirish imtihonlarida "qoniqarsiz" baho olganlari hech kimni qiziqtirmadi.

XULOSA

Biz umumta'lim maktablarida o'qituvchilik qilayotgan o'zimizning yaqinlarimiz, anchagina tanish-bilimlarimiz bilan o'tkazgan suhbatlarimiz shuni ko'rsatdiki, ular mazkur usul to'g'risida ma'lumotga ega emas ekanlar. Bunday holning sabablari o'qituvchilar tayyorlanayotgan universitetlar va pedagogika institutlari bilan bog'liqmikan, degn savol bizni qiziqtira boshladi. Biz endi o'sha universitetlar va pedagogika institutlarining, shuningdek, barcha viloyatlarda mavjud bo'lgan pedagogik mahorat maktablarining dasturlari va o'quv rejalarini o'rganmoqchi bo'ldik.

Shu yo'nalishdagi harakatlarimizning dastlabki natijalari shuni ko'rsatdiki, na o'sha universitetlarning, na pedagogika institutlari va na pedagogik mahorat markazlarining dasturlari va o'quv rejalarida odamlarning, shu jumladan, o'quvchilarning ongosti qanday tuzilma ekani, unda nimalar joylashgani va unga qanday kirish mumkinligini o'rganish ko'zda tutilmagan ekan. Ongosti qanday tuzilma ekani va unga qanday ta'sir o'tkazish mumkinligi o'sha dastur va o'quv rejalarini tuzuvchi psixolog va pedagoglarni qiziqtirmas ekan, tabiiyki, unga kirishni ta'minlashi mumkin bo'lgan uqtirish usulini o'rganish ham hech kimni qiziqtirmagan. Biz endi bunday holning sabablarini ham o'rganmoqchi bo'ldik. Lekin bu masala ancha nozik va murakkab bo'lgani uchun u alohida suhbatni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.2-jild Moskva, "Rus tili" nashriyoti, 1991 291-bet
2. I.E.Shvars. Vnushenie v pedagogicheskom prosesse, Perm, Knijniy mir, 2009
3. Lozanov G. Suggestologiya. Sofiya 1989
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/vnushenie-kak-metod-motivatsii>. Obr. 07 09 2025